

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....23

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Mamirova Xayriniso Komiljon qizi-

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Xayrinisomamirova06@gmail.com

**BOLALAR NUTQIDA KO'P MA'NOLI SO'ZLARNING O'ZLASHTIRILISHI:
KOGNITIV VA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362388>**ANNOTATSIYA**

Ushbu ilmiy maqola polisemiya hodisasi o'zlashtirilishiga oid tadqiqotlar obzoriga bag'ishlangan. Mazkur maqolada bolalar til o'zlashtirishida polisemiya va omonimiyaga oid tadqiqotlar sharhi keltirilgan. Bolalar yangi so'zlarni o'zlashtirishda shakl va ma'no o'rtasidagi bog'lanishni qanday qabul qilishi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada polisemiya o'zlashtirishning ta'limiy ahamiyati, til o'rganishda kognitiv yondashuvning muhimligi, ko'p ma'noli so'zlarni o'rganishning bosqichlari tadqiqotlar asosida yoritilgan. Xulosa qilib aytganda, maqolada polisemiya o'zlashtirilishining psixolingvistik-kognitiv yondashuvlariga asoslangan nazariy-tadqiqiy ishlarning tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: polisemiya, til o'zlashtirish, aqliy leksikon, omonlilik, shakl ustuvorligi, metafora, kognitiv psixologiya, idrok, xotira, nutq.

Mamirova Khayriniso Komiljon qizi-

Doctoral candidate at the Alisher Navoi Tashkent State University
of Uzbek Language and Literature

**ACQUISITION OF POLYSEMOUS WORDS IN CHILDREN'S SPEECH:
COGNITIVE AND PSYCHOLINGUISTIC APPROACHES****ABSTRACT**

This scientific article presents a review of research on the acquisition of polysemy. The article provides an overview of studies on polysemy and homonymy in children's language acquisition. It offers insights into how children perceive the relationship between form and meaning when learning new words. Additionally, the article highlights the educational significance of mastering polysemy, the importance of cognitive approaches in language learning, and the stages of acquiring polysemous words based on research findings. In conclusion, the article analyzes theoretical and empirical works grounded in psycholinguistic-cognitive approaches to polysemy acquisition.

Keywords: polysemy, language acquisition, mental lexicon, homonymy, form priority, metaphor, cognitive psychology, perception, memory, speech.

Мамирова Хайринисо Комилжон кизи-Докторант базовой докторантуры Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои**ОСВОЕНИЕ МНОГОЗНАЧНЫХ СЛОВ В РЕЧИ ДЕТЕЙ: КОГНИТИВНЫЙ И
ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОДЫ****АННОТАЦИЯ**

Данная научная статья посвящена обзору исследований, касающихся усвоения явления полисемии. В статье представлен обзор исследований полисемии и омонимии в процессе овладения языком детьми. Приводится информация о том, как дети воспринимают связь между формой и значением при усвоении новых слов. Также в статье на основе исследований освещается образовательная значимость усвоения полисемии, важность когнитивного подхода в изучении языка, этапы освоения многозначных слов. В заключение можно сказать, что в статье представлен анализ теоретико-исследовательских работ, основанных на психолингвистическо-когнитивных подходах к усвоению полисемии.

Ключевые слова: полисемия, усвоение языка, ментальный лексикон, омонимия, приоритет формы, метафора, когнитивная психология, восприятие, память, речь.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Ma'lumki, bolalar so'zlarni bir qator aqliy va ijodiy fikrlashdan foydalangan holda tezda o'rganadilar. Psixolingvistika sohasida kamroq e'tibor berilgan jihatlardan biri bolalarning til o'zlashtirilishida tabiiy tilning aksariyatini tashkil etuvchi ko'p ma'noli so'zlarning o'zlashtirilish masalasi edi. Bolalar obyektiv borliqni lingvistik bilimlar orqali jarayonda o'zlashtirar ekan, ko'p holatda butunlay yangi so'zni emas, balki ma'lum so'z uchun yangi ma'noni o'rganadilar.

Odatda, bolalar aqliy leksikonida lug'at boyish jarayoni – bolalar ongida minglab yangi so'zlarning ma'nosini qabul qila olish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Ammo bu tavsiflar ko'p jihatdan to'g'ri emas. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bunday qarashlar ko'p olimlarning tadqiqot xulosalarida uchraydi. Xususan, tabiiy tildagi so'zlarning aksariyati ko'p ma'noli va turli xil ma'nolarni ifodalagani sababli odatiy holda bolalar ilgari o'zlashtirilgan so'zlar uchun qo'shimcha ma'nolarni o'rganishlari kerak bo'ladi. Shunga qaramay, ilmiy tadqiqotlarda bolalarning ma'lum o'zlashtirgan so'z shakliga asosiy ma'nosidan tashqari yangi ma'no yuklash qoidasi, darajasi, holati; yangi o'zlashtirayotgan ma'no bilan bog'liq miya, ong, xotira, kognitiv jarayonlariga qanday ta'sir qilishi mumkinligi yoki yangi so'z ma'nosini o'rganish bolalarni ushbu so'zning eski ma'nosi haqidagi tasavvurlarini yangilashga undashi mumkinligi kam o'rganilgan.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Professor M.Mirtojievning "O'zbek tilida polisemiya" (1975) kitobida til o'zlashtiruvchilar uchun so'z boyligining eng cho'qqiga chiqqan nuqtasi deb 4 yosh belgilangan va bu yoshda bola 2 ming so'zni nutqida mustaqil ishlatib, 6 ming so'zni faxmlay olishi haqidagi fikrlar bor. Ammo bu raqamlar qaysi tadqiqotga tayanilganligi haqida asos berilmagan. Yuqoridagi kitobda polisemiyaning inson nutqiy qulayligi va xotirasi uchun muhimligiga e'tibor qaratilib, agarda tabiiy tilda polisemiya hodisasi mavjud bo'lmaganda 4 yoshli bola uchun o'z hayotiy ehtiyojlarini ifodalovchi so'zlar soni 10 ming, faxmlashi zarur bo'lganlari esa 20 mingdan ortiq bo'lishi kerakligi haqida ma'lumot berilgan va tilshunos olim O.Yesperenning "Til polisemantik so'zlardan holi qilinganda edi, "Lingvistik do'zax"ga aylangan bo'lardi", degan fikrlari keltirilgan [Mirtojiev M. 1984,5].

Bolalar yangi so'zlarni o'zlashtirish uchun xususiylikdan umumiylikni yuzaga keltiruvchi muammolarni hal qilishi kerakligi haqidagi g'oya til rivojlanishi bo'yicha o'n yillab olib borilgan tadqiqotlarga asos bo'ldi. Bunday tadqiqotlar natijasi bolalarning yangi so'z ma'nolari tuzilishi haqidagi farazlari cheklanishi kerak, degan xulosaga olib keld. [Markman, 1990, 45]. Ko'plab tadqiqotlarda polisemiyaning o'zlashtirilishi jarayonida shakl ustuvormi yoki material, degan savol o'rtada bo'lgan. O'tkazilgan tajribalarning aksariyatida shakl ustuvorligi tasdiqlangan. Masalan, polisemiya o'zlashtirilishiga oid ilk tadqiqot ishlarida [Landau, Smith, & Jones, 1988; Smith, Jones,

& Landau, 1996] bolalar qattiq jism uchun yangi sanoq otini o'rganishda shakl ustuvorligini namoyon etadilar va o'ning hajmi, materiali yoki rangidan qat'i nazar, o'xshash shaklga ega bo'lgan boshqa jismlarga ham taalluqli bo'lishini kutadilar, degan xulosa berilgan

Kognitiv psixologiya bilan shug'ullanuvchi olimlar Yoshida va Smithning "Known and Novel Noun Extensions: Attention at Two Levels of Abstraction" (Ma'lum va mavhum otlar kengaytmalari: Abstraksiyaning ikki darajasiga diqqat) tadqiqotida so'z ma'nolarining o'zlashtirilishida shaklga tayanilgan mantiqiy bilish usullari bolalarga yangi so'z ma'nolarining kengayishi haqida aqliy, dastlabki taxminlarni beradi. Bu taxminlar bolalar ulg'aygani sari qo'shimcha dalillarni to'plashi va so'zlarning kattalarnikiga o'xshash ma'nolarini shakllantirish jarayonida takomillashtiriladi [Yoshida & Smith. 2003, 46].

Polisemiya o'zlashtirilishiga oid dissertatsiyalarning deyarli barchasida tadqiqotning bir qismida, albatta, polisemiya va omonimiya hodisalarining tabiiy tildagi nazariy asoslari va dissertatsiya mohiyatidan kelib chiqib, psixologik, neyrolingvistik, kognitiv jihatlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Jumladan, David Alexander Mc Kerchening Stanford universitetida PhD darajasi uchun himoya qilingan "The Polysemy of *with* in first Language acquisition" nomli tadqiqotida ko'p ma'nolilik va omonimiya shunchaki intuitiv anglashiniladigan hodisa emas, balki maxsus etimologik, tillararo tajribalar o'tkazilib maxsus modellar yaratilishi zarur bo'lgan leksik qatlam ekanligini ta'kidlaydi [Aleksandr D. 2001, 23]. Til o'zlashtirilishida ko'p ma'nolilik hodisasini tavsif qilishda deyarli barcha tadqiqotlarda omonimlik hodisasining o'zlashtirilishi bilan o'zaro taqqoslanadi. Tilshunos olim Srinivasan va Rabagliatining "How concepts and conventions structure the lexicon: Cross-linguistic evidence from polysemy. *Lingua*" maqolasida omonim til o'zlashtirishda eng ko'p qiyinchilik tug'diruvchi va tabiiy tilda kam uchraydigan hodisa sifatida qaraladi. Polisemiya esa tabiiy tilda eng keng tarqalgan (monosemantik so'zdan ham ko'p) va noaniqlikka ega bo'lgan shakl sifatida ta'riflanadi. Tadqiqotchilar polisemiyaga nisbatan materialni ham, materialdan yasalgan predmetni ham ifodalovchi birlik sifatida qaraydi. E'tiborli tomoni shundaki, o'zaro ma'no bog'liqligiga ega bo'lgan ma'nolarni ifodalovchi omonimlardan farqli o'laroq, polisemik ma'nolar o'zaro bog'liqdir, bu esa bolalarning polisemik so'zning bir ma'nosini bilishi, ularning boshqa polisemik ma'nolarni o'zlashtirishiga to'sqinlik qilish o'rniga, aksincha yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, "oyoq" so'zining joylashish o'rniga ko'ra ma'nosini o'rgangan bola, keyinchalik oyoq so'zining ko'chma ma'nodagi juftliklarini "aqliy taxminlar" va shakl o'xshashligi asosida o'zlashtirib boradi. Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, polisemiya bolalarga kategoriyalarni yangicha talqin qilish imkonini berib, ularning asosiy tuzilishi ko'p ma'nolilikning qamrovi haqidagi tasavvurlarini shakllantirishi mumkin.

Psixolingvistik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'p ma'noli so'zlarning turli ma'nolari omonimlar kabi bir-biriga raqobat qilmasligi va to'sqinlik qilmasligi mumkin. Bundan tashqari, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari o'zaro bog'liq bo'lgani uchun, ko'p ma'noli so'zning bir ma'nosini tushunish bolalarga shu so'zning qo'shimcha ma'nolarini o'rganishda foydali bo'lishi mumkin [Rabagliati & Srinivasan, nashrda; Srinivasan & Rabagliati, 2015]. Srinivasanning diqqatga sazovor tadqiqot xulosalaridan yana birida, bolalar ko'p ma'noli so'zlarning yangi ma'nolarini nafaqat tushunishga qodir, balki ularning turli xil ma'nolarda ishlatilishini o'z-o'zidan oldindan ham payqay olishlari mumkinligini aytadi [Srinivasan va boshqalar, 2017]. Ayni shu tadqiqotda berilgan misolga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar yangi qurol bilan yangi modda ustida harakatni bajarayotgan agentni kuzatishdi va bu harakatni ifodalovchi yangi fe'lni o'rganishdi: "*Qarang, u buni daksilamoqda (o'ylab topilgan so'z)*". Keyin bolalarga yangi qurolning va yangi moddaning tasviri ko'rsatilib, ulardan ikkinchi so'zning ma'nosini ko'rsatish so'raldi: "*Menga lum (o'ylab topilgan so'z) ni ko'rsating.*" Qiziq tomoni shundaki, bolalar odatda qurolni emas, balki moddani tanladilar. Bu esa ular qurolning "*daks*" deb atalishini o'z-o'zidan taxmin qilganliklarini va shu sababli yangi, ikkinchi so'z ("lum") bu qurolni belgilashdan to'silganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, bolalar harakatni ifodalovchi yangi so'z ingliz tilidagi ko'p ma'nolilik qonuniyatiga mos kelishini kutishgan, ammo bolalar odatda moddani ko'proq tanlashgan ya'ni bir so'z ham harakatni, ham shu harakatni bajarish uchun ishlatiladigan qurolni anglatishi (masalan, "bolg'a" / "bolg'alamoq", "kurak" / "kuraklash" va hokazo) kabi. Bu tadqiqot natijasi

shuni ko'rsatadiki, yosh bolalar ko'p ma'noli so'zning bitta ma'nosini o'rganganlaridan so'ng, ular mavjud qonuniyatlarga asoslanib, o'sha so'zning boshqa ma'nolarini ham oldindan payqay oladilar. Bu xulosa bolalarning o'z nutqlarida ko'p ma'nolilik qonuniyatlarini umumlashtirishlari haqidagi boshqa ma'lumotlar bilan ham mos keladi: masalan, Clark (1982) va Bowerman (1983) larning til o'zlashtirilishiga oid ishlarida uchratish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'p ma'noli so'zlarning qo'shimcha ma'nolarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati ikkinchi til o'zlashtiruvchilarga o'quv lug'ati tuzish uchun muhim vosita bo'lishi mumkin, chunki ko'p ma'nolilikning oldindan taxmin qilinadigan belgilari tillar ichida va ular o'rtasida keng tarqalgan. Polisemiya o'zlashtirilishiga oid eng so'nggi nashr qilingan (International Journal of Education and Humanities) tadqiqotlardan biri xitoylik tilshunos olimlar: Xiang Huang va Yana Guo "The Acquisition of Polysemous Words in Maritime English from a Cognitive Perspective" (Mertime ingliz tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni kognitiv nuqtayi nazardan o'zlashtirish) maqolasida an'anaviy lug'at o'qitish usuli ko'pincha ko'p ma'noli so'zlardagi turli ma'nolar o'rtasidagi kognitiv aloqalarni e'tibordan chetda qoldirishi, bu esa til o'zlashtiruvchilarga murakkab ma'no tarmoqlarini tushunishini qiyinlashtirishi haqida fikr yuritiladi. Polisemiya o'zlashtirilishining ta'limiy jihatiga psixolingvistik tomondan emas, kognitiv yondashuvga ko'ra tahlil qilib, ingliz tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish jarayonini kognitiv nuqtayi nazardan o'rganish lug'at o'qitish samaradorligini va talabalarning til bilimi darajasini oshirish uchun muhim ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ingliz tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosi o'zaro alohida "orol" emas, balki bir-biri bilan bog'langan "kontinental shelf" (bir xil shakldagi so'z sememalarining bog'liqligi nazarda tutilyabdi) ekanligini tushunishlari kerakligi, o'zlashtiruvchilar tajriba va bilimlarni doimiy to'plash orqali prototip ma'nosiga asoslangan va turli ma'nolar tayanch nuqtalar bo'lgan ma'no tarmog'i tizimini bosqichma-bosqich shakllantirishlari lozimligi hamda bu jarayon o'quvchilarga ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolarini nisbatan to'liq o'zlashtirishga yordam berishi, ularning kognitiv, til qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi haqida tahliliy qarashlari berilgan. Tadqiqotchilar polisemiyaning metoforik ko'rinishlariga urg'u berib, bunday ko'chma ma'noli so'zlarning o'quvchilar tafakkuridan joy olish bosqichlarini bir nechta kognitiv mexanizmlarga ajratadi:

- idrok etish;
- tushunish;
- eslab qolish;
- nutqda qo'llash.

Bunda o'quvchilar idrok etish - tushunish - xotira - qo'llashning bir necha bosqichlaridan o'tishlari kerak. Idrok etish bosqichida o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning turli qo'llanilish misollari va ularning kontekstlari bilan tanishishlari kerak. Tushunish bosqichida o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning turli ma'nolari o'rtasidagi ichki bog'lanishlar va rivojlanish qonuniyatlarini anglash uchun metafora va metonimiya kabi kognitiv mexanizmlarga tayanishlari lozim. Ko'p ma'noli so'zlarning ma'no tuzilishi va rivojlanish tarixini ochib berish uchun turli kontekstlardagi qo'llanish farqlarini chuqur tahlil qilish va taqqoslash zarur. Esab qolish va qo'llash bosqichida o'quvchilar o'rgangan ko'p ma'noli so'zlar haqidagi bilimlarini o'z til tizimiga singdirishlari va muloqotda faol qo'llay olishlari kerak [Xiang Huang & Yana Guo, 2024, 182-185]. Bu o'quvchilardan ko'p ma'noli so'zlarning turli ma'nolarini va ularning qo'llanish misollarini puxta o'zlashtirishni, turli kontekstlarda fikr va tuyg'ularni ifodalash uchun tegishli ma'noni aniq tanlay olish va qo'llay bilishni talab etadi. Yuqorida tahlili berilgan tadqiqot xulosasida "ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish oddiy yodlash jarayoni emas, balki bu kognitiv mexanizmlar, kontekstni tushunish va tilni qo'llash qobiliyati kabi ko'plab omillarni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir", - deydi tilshunoslar Xiang Huang va Yana Guo.

XULOSA

Ko'p ma'noli so'zlar til o'zlashtirish jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki ular bolalarning leksik tizimini boyitish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada bolalar polisemik so'zlarni o'rganish jarayonida bir nechta kognitiv mexanizmlar va

abstraksiyalarni ishlatishi, shuningdek, bu jarayon tilni o'rganishda muhim o'rin tutganligi ko'rsatilgan. Polisemiya o'zlashtirilishi faqatgina so'zlarning birinchi ma'nosini bilishdan iborat emas, balki bu jarayon bolalarda yangi ma'no shakllanishini va uning turli kontekstlarda qo'llanilishi uchun asos yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, polisemiya va omonimlikni o'rganish bolalar uchun tilda aniqlik va qat'iylik yaratishda yordam beradi. Polisemiya so'zlarining ma'nolari o'zaro bog'langan bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, bu esa bolalarga so'zning keng qamrovli ma'nolarini o'rganishda yordam beradi. Buning natijasida bolalar yangi so'zlar va ma'nolarni o'zlashtirishda yanada samarali va intuitiv tarzda harakat qilishlari mumkin.

Ko'p ma'noli so'zlarni o'rganish jarayoni nafaqat yodlashni, balki kognitiv tahlil, kontekstni tushunish va so'zlarning ma'nolarini turli vaziyatlarda moslashtirish qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bolalar so'zlarning turli ma'nolarini tushunish orqali tilni samarali va aniq qo'llashni o'rganadilar. Ushbu jarayon, shuningdek, o'quvchilarning tilni bilish darajasini oshirish va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

TAKLIFLAR:

1. **Ko'p ma'noli so'zlar bo'yicha maxsus o'quv materiallari yaratish:** O'quvchilarga polisemiya so'zlarining har bir ma'nosini o'rganish va kontekstga qarab to'g'ri tanlashni o'rgatish uchun maxsus materiallar va mashqlar ishlab chiqilishi zarur.
2. **Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan metodlar:** Polisemiya o'rganishda kognitiv jarayonlarning rolini tan olish, o'quvchilarning tilni nafaqat yodlab olish, balki uni amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, bolalar uchun til o'rganish jarayonida mantiqiy fikrlash va so'zlarning turli ma'nolarini tushunishga yordam beradigan metodikalar ishlab chiqilishi zarur.
3. **Tadqiqotlar va amaliyotlarni yanada kengaytirish:** Polisemiya o'zlashtirilishiga oid kognitiv nuqtayi nazardan yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish, bu sohadagi nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga yordam beradi.

Iqtiboslar/References/Сноски

-
1. Mirtojdiyev, M. O'zbek tilida polisemiya. – Tashkent: Fan. 1975, – B. 5.
 2. Markman, E. M. Categorization and Naming in Children: Problems of Induction. – MIT Press. 1990, – P.45
 3. Landau, B., Smith, L. B., & Jones, S. The importance of shape in early lexical learning. Cognitive Development – Elsevier Inc. 1988, – P. 299-319.
 4. Smith, L. B., Jones, S., & Landau, B. The role of shape in the naming of objects. Cognitive Development. – Psychological Science. 1996, – P. 145-171.
 5. Yoshida, H., & Smith, L. B. Known and Novel Noun Extensions: Attention at Two Levels of Abstraction. Child Development. – DOI: 10.1111/1467-8624.7402016. 2003, – P. 139-157.
 6. Srinivasan, M., & Rabagliati, H. How concepts and conventions structure the lexicon: Cross-linguistic evidence from polysemy. Lingua, – Elsevier/ Lingua. 2015, – P. 37–58.
 7. Rabagliati, H., & Srinivasan, M. (n.d.). The role of polysemy in language acquisition: Evidence from cross-linguistic studies. – The MIT Press. 2024.
 8. Huang, X., & Guo, Y. The Acquisition of Polysemous Words in Maritime English from a Cognitive Perspective. International Journal of Education and Humanities. 2001, – P. 45-62.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000